

## “Mahalla bilan hamkorlik”

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 20-apreldagi PF-6208-sonli Farmoni, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 29 - apreldagi 202-sonli buyrug'i ijrosini ta'minlash yuzasidan, Toshkent shahar Mirzo-Ulug'bek tumanidagi “Shaxrisabz” M.F.Y. bilan “Suv xo'jaligini tashkil etish va boshqarish” fakulteti hamkorligini yo'lga qo'yish bo'yicha fakultet dekani R.Xakimov boshchiligida fakultet professor-o'qituvchilari hamrohligida ishlar yo'lga qo'yildi.



“Shaxrisabz” M.F.Y. raisi Koshetova Jumabike Tanirbergenovna, Raisning oila, xotin-qizlar va ijtimoiy-ma'naviy masalalar bo'yicha o'rinbosari Karabaeva Matluba Sobirovnalar bilan fakultet Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan o'rinbosari J.Turdiyev, “Ingliz tili” kafedrasida mudiri F.Begov, “Axborot texnologiyalari” kafedrasida o'qituvchisi K.Kubiyashev hamda U.Nullaevlar uchrashib, Mahalladagi bandligi ta'minlanmagan yoshlar sonini aniqlash, ro'yxatga olish, mahalla yoshlari uchun tadbirkorlik o'quv kurslari tashkil etish, mahalladagi yoshlarning qiziqishlariga qarab, ularni “Ingliz tili” kursi, “Kompyuter savodxogligi” kurslariga jalb etish bo'yicha kelishib olindi.



**“SXTE va B” fakulteti dekani o'rinbosari J.Turdiyev ma'lumoti  
TIQXMMI matbuot xizmati**